

**“HIDOVATUN NAHV” ASARI MUALLIFINING HAYOTI VA UNING
ASARLARI**

*Oriental universiteti
1-kurs magistranti Iminov Omadbek*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Hidoyatun Nahv” asarining muallifi bo‘lgan Husayn ibn Muhammadning hayoti va ilmiy merosi tahlil qilinadi. Asarning arab tili grammatikasidagi o‘rni, uslubiy yondashuvi hamda ta’limiy ahamiyati yoritiladi. Muallifning boshqa asarlari va ularning ilmiy an'anadagi o‘rni haqida ham qisqacha ma'lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Hidoyatun Nahv, Husayn ibn Muhammad, arab tili grammatikasi, nahv, ilmiy meros, diniy ta’lim.

Abstract: This article explores the life and scholarly legacy of Husayn ibn Muhammad, the author of the well-known Arabic grammar book *Hidāyat an-Nahw*. The work’s methodological approach, its importance in Arabic linguistic studies, and its educational significance are discussed. A brief overview of the author's other contributions to Islamic sciences is also provided.

Keywords: *Hidāyat an-Nahw*, Husayn ibn Muhammad, Arabic grammar, Nahw, scholarly legacy, Islamic education.

Аннотация: В данной статье рассматривается жизнь и научное наследие Хусейна ибн Мухаммада — автора знаменитого труда по арабской грамматике «Хидаят ан-Нахв». Освещаются методология книги, её значение в изучении арабского языка и образовательная ценность. Также кратко упоминаются другие труды автора и их роль в исламской науке.

Ключевые слова: Хидаят ан-Нахв, Хусейн ибн Мухаммад, арабская грамматика, нахв, научное наследие, исламское образование.

“Hidoyatun nahv” kitobi muallifining to‘liq ismi Asriddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf ibn Hayyon al-Andalusiy al-G‘arnotiy al-Jayyyoniy bo‘lib, u hijriy 654 yilda tug‘ilgan va ulamolar oraisda “Abu Hayyon” laqabi bilan mashhur bo‘lgan. Yoshligida Qur’oni karimni yod olib, qiroat, tajvid, hadis fanlarida katta martabalarga erishgan.

Ustozlari:

Abu Hayyon rohmatullohi alayh Abu Muhammad Abdulhaq rahmatullohi alayhdan tajvid fanini, Abu Ja’far G‘arnotiy, Abu Ali Husayn ibn Abdulaziz rahmatullohi alayhlardan qiroat ilmini, Abdul Halim rohmatullohi alayhdan hadis ilmini, Iroqiy rohmatullohi alayhdan fiqh, usulu din ilmini, mantiq, kalom ilmlarini

Abu Ja'far ibn Zubayrdan, nahv ilmini Abul Hasan Abu Ja'far ibn Zubayr va ibn Soig'dan olgan.

Abu Hayyon qiroat ilmida ham mashhur, ulug' ustozlar huzurida tahsil olgan hofiz edi. U avval qiroatni al-Xatib Abu Ja'far ibn at-Tabbo' huzurida, undan so'ng esa al-Hofiz Abu Ali ibn Abul-Ahvas huzurida o'rganib, qiroat ilmining mashhur usullarini ham egalladi. Andalus va Afrikaning boshqa hofizlariga ham qulqoq tutdi. Keyin Iskandariyaga keldi va u yerda qiroat ilmidan Abdunnasir ibn Ali al-Marbutiy huzurida, Misrga kelib esa Abu Tahir Ismoil ibn Abdulloh al-Maliyjiy huzurida ta'lim oldi. Ustoz ash-Shayx Bahouddin ibn an-Nahhosni uchratgandan so'ng, uning etagidan mahkam tutdi va uning huzurida juda ko'p adab kitoblarni o'qidi¹.

Abu Hayyonning o'zini guvohlik berishicha, u ta'lim olgan ustozlarining soni to'rt yuz ellikdan oshgan.

As-Safadiy: "Men Abu Hayyonni qachon ko'rmayin, u birovdan ta'lim olayotgan yoki yozayotgan yoki biror kitobni mutolaa qilayotgan holda bo'lardi, hech bekor o'tirmasdi", deydi.

Shuningdek, Abu Hayyon she'r va muvashshah² yozardi, lug'at, nahv, sarf ilmlarida ustozu mutloq edi. Nahvga oid "Jam'ul javomi'" kitobining muallifi Suyutiy rahmatullohi alayh: "Kitobimda yozilgan ma'lumotlarni Abu Hayyon rohmatullohi alayhning asarlaridan olganman", degan³.

Olimning ham asri bo'lgan Salohiddin Safaviy Abu Hayyon rohmatullohi alayh haqida quyidagilarni aytgan: "U nahvda amirul mo'miniyn bo'lgan". U Misr, Iroq, Shom, Hijoz va Yamanga ilmiy safarlar qilgan.

Uning ilmida benazrligi, ustozlarning ko'pligidan tashqari ilmning turli sohalarini egallagan shogirdlari ham ko'paydi.

Shogirdlari: Ibn Aqiyl va Ibn Hishom rohmatullohi alayhlar Abu Hayyon rohmatullohi alayhning shogirdlari hisoblanishadi.

Yozgan asarlari: Olim 65 ga yaqin arab, fors tillarida kitob yozgan. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar: "Al-Bahrul muhiyt", "Sharhi tas'hiyl", "Manhajus solik" (Alfiya ibn Molikning sharhi), Hidoyatun nahv", "G'aribul Qur'on" "Nihoyatul-e'rob", "Xulosatul-bayon" nomli kitoblarni sanab o'tishimiz mumkin. Qur'on tajvidi haqida Ash-Shotibiyning mazmumasi kabi unga nisbatan qisqaroq bo'lgan mazmuma (she'riy kitob) ham bor.

Abu Hayyon avvalda hech bir mazhabda bo'limgani, keyinroq Shofiiy mazhabini qabul etgani haqida ulamolardan rivoyatlar bor. U falsafa va e'tizoldan yiroq, salaf ulamolarning yo'lini mahkam ushlagan kishi edi.

U 745 hijriy yilda Misrda vafot etgan⁴.

¹ Ramatulloh qori Obidov. Qur'on, Tafsir va Mufassirlar. Toshkent: Movarounnahr. 2013. – B. 163.

² Muvashshah-biror odamning ismidagi harflar tartibida yozilgan bag'shlov g'azal.

³ Ramatulloh qori Obidov. Qur'on, Tafsir va Mufassirlar. Toshkent: Movarounnahr. 2013. – B. 163.

⁴ --O'sha asar.. – B. 163.

Abu Hayyon rohimahullohning “al-Bahrul-muhit” asari sakkizta kitobdan iborat, ulamolar xususan qiroat usullari va kalimalarning tarkiblanishi bilan qiziqqan toliblar bu kitobga ko‘p murojat qiladilar. Muallif ushbu nahv qoidalarini yozayotgan paytda hali juda yosh edi. Shunga qaramasdan, Alloh bergen iste’dod sababli, nahviy olimlar o‘trasidagi ixtiloflarni shu qadar batafsil yoritib berganki, uning bayonlariga qaraganda kitob tafsirdan ko‘ra nahv kitobiga yaqinroq bo‘lib qolgan. Lekin Abu Hayyon nahv qoidalari dengiziga shunchalik sho‘ng‘ib ketganiga qaramasdan, tafsirning boshqa sohalariga beparvo bo‘lgan emas. Uning tafsirida lug‘at ilmi ham, sababi nuzul, nosih-mansux, qiroat, balog‘at, fiqh ilimlari borasida ham me’yorga yetkazib fikrlar aytilgan va tafsir qilingan. Bu haqda muallifning o‘zi tafsir muqaddimasida shunda deydi: “Mening bu kitobni yozishdagi tartibim shunday, ya’ni men avval oyatning har bir so‘zi haqida, uning tafsiri, lug‘aviy ma’nosи, jumlada egallagan o‘rni-tarkibi, ikki yoki undan ko‘p ma’noli so‘z bo‘lsa oyatning tafsiriga muofiq ma’noni tanlab olish uchun hamma ma’nolarin keltirib, keyin oyatning tafsiriga o‘taman. Tafsilda esa, tartib bilan oyatning sababi nuzuli, nosix yoki mansuxligi, yuqoridaqoyatga bog‘liqligi, munosabati, shu oyat ustida qurrolarning mashhur yoki kam eshitilgan qiroatlari haqida to‘xtalib, keyin oyatning ma’nosini tushunishda yordam beradigan salaf va keyingi ulamolarning fikrlarini bayon etaman. Lekin takrordan qochgan holda, biror oyat yoki biror kalima haqida avval gapirgan bo‘lsam, uni qaytarmaslikka harakat qilaman va takrorlash zarur bo‘lgan joyda avvalgi mavze’ga havola qilaman. Biror fiqhiy masala haqida gapirsam, bu masala borasida to‘rt mazhabning fikrlarini bayon etish bilan birga, qaysi manbadan olinganini ham ko‘rsatib o‘taman.

Shuningdek, nahv qoidalari bayon etganimda ham uning tahlilini batafsil qilib, keyin nahviy olimlarning kitoblaridan ham dalil sifatida iqtiboslar keltiraman va u manba’larga ham ishora qilaman.

Oyat tafsirini hamma tamonlama mukammal tafsir qilib bo‘lganimdan keyin ma’nosini tasdiqlovchi naqliy rivoyat keltiraman-da, ana shunga suyanib, gapni unchalik cho‘zib yubormagan holda mazkur oyatni sharhlayman. Menden keyin biror kishi ushbu ishni qilaman (tafsir yozaman) desa, mening uslubim unga namuna bo‘lsin. Ba’zi oyatlarning tafsirida tasvvuf ahlining kalomlarini ham keltirganman. Lekin ularning ba’zilarining aqldan uzoq gaplaridan qochganman. Men tafsilda botiniylarning Alloh, Hazrat Ali va u kishining avlodlari haqida botil fikrlarini keltirmadim.”⁵

Abu Hayyon o‘z tafsirida az-Zamaxshariy, Ibn Atiyya tafsirlaridan foydalangan va ulardan iqtiboslar keltirgan. Shu bilan birga nahv qoidalari borasida bu ikki mufassirning gaplariga juda ko‘p raddiyalar bergan. Abu Hayyonning tafsirida mazkur ikki olimning fikrlariga munosabati va raddiyalari nihoyatda ko‘pligidan, uning

⁵ Ramatulloh qori Obidov. Qur'on, Tafsir va Mufassirlar.. Toshkent: Mavarounnahr. 2013. – B. 164.

shogirdi Tojiddin Ahmad ibn Abdulqodir ibn Ahmad ibn Maktum⁶ muxtasar qilib, undan ustozining az-Zamaxshariyga va Ibn Atiyyaga nahv borasida bergan raddiyalarini olib tashlagan. Muxtasarning nomi “Ad-Durrul laqit minal-Bahril muhit” bo‘lib, “Al-Bahrul muhit” kitobining hoshiyasida chop etilgan va uning bir qo‘lyozma nusxasi Al-Azhar kutubxonasida saqlanmoqda.

Ash-Shayx Yahyo ash-Shoviy al-Mag‘ribiy esa Abu Hayyonning imom Zamaxshariyga qilgan e’tirozlarini jamlab katta bir kitob qilgan. Bu kitobning qo‘lyozmasi ham al-Azhar kutubxonasida saqlanmoqda.

Abu Hayyon o‘z tafsirining 2 jildining 276 chi va 7 jildining 85 betlarida Az-Zamaxshariyning mo‘taziliylarga oid fikrlari uchun qattiq qoralash bilan birga, insofli olim sifatida uning “Qur’on balog‘atlarini mohirlik bilan tushintirishi” haqida gapirib, hatto: “Alloh taolo unga (Zamaxshariyga) Qur’on ilmini mukammal bergen, u Qur’on lafzlarini yaxshi tushinish bilan birga, uning ma’nolarini ochib berishda ham benazir olimdir”, -deydi⁷.

Abu Hayyon o‘z tafsirida keltirgan naqllarning barchasini ustozni Jamoliddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Sulaymon ibn Hasan ibn Husayn al-Maqdisiyning “Kitobut-tahrir vat-tahbir li aqvoli aimmatit-tafsir” kitobidan olgan. “Ibn An-Naqib” laqabi bilan mashhur bo‘lgan ustozning yozgan kitobi ulumul-Qur’on borasida yozilgan eng katta asar bo‘lib, yuz jiddan iboratdir⁸.

Abu Hayyon rohmatullohi alayhning vafot etgan sanasi borasida turli ixtiloflar mavjud. Ba’zilar hijri 743 yil, deyishsa, yana ba’zilar hijriy 745 yil deyishgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragfiga xulosa: Abu Hayyon rohmatullohi alayhning hayotiga nazar tashlasak, u zot barcha fanlarda o‘z davrining yetuk olimi bo‘lgani va qarib to‘qson yillik umrida arab, fors tillarida Qur’on ilmi, tafsir, balog‘at, tajvid, nahv borasida salmoqli asarlar bitganiga va she’riyat bilan shug‘ullanib, o‘z umrini mazmunli va ibratli o‘tkazganining guvohi bo‘lamiz. Allomaning qoldirgan beqiyos merosi hozirgacha olimlar va ustozlar tarafidan keng o‘rganilmoqda va yana uzoq vaqt o‘rganiladi. Allomaning hayotini dengiz desak, men u zotu barokatning mazmunli hayotini va arab gammatikasiga oid “Hidoyatu an-Nahv” asarini qisqacha o‘rganishim dengizdan bir tomchi, deyilsa hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Alloh u zotning din yo‘lida qilgan hizmatlarini dargohi oliyiga qabul qilsin va o‘z rahmatiga olgan bo‘lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Hidāyah fi al-Nahw – Shayx Husayn ibn Muhammad
2. Az-Zurqānī, Muhammad: *Sharh al-Muqaddima al-Ājurruumiyya*

⁶ U 749 hijriyda vafot etgan. Ramatulloh qori Obidov. Qur’on, Tafsir va Mufassirlar. Toshkent: Movarounnahr. 2013. – B. 163.

⁷ Ramatulloh qori Obidov. Qur’on, Tafsir va Mufassirlar. Toshkent: Movarounnahr. 2013. – B. 164.

⁸ O’sha asar. – B. 165.

3. Abdul Karim, A.: *History of Arabic Grammar*, Cairo University Press, 1981
4. O‘zbekiston Islom Akademiyasi nashrlari – “Nahv va Sarf ilmlari” to‘plami
5. Abduqodir Toirov: *Arab tili grammatikasi asoslari*, Toshkent, 2019